

Ta’lim samaradorligini oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalarining ahamiyati

Qashqadaryo VXTXQTMOI “Tabiiy va aniq fanlar ta`limi” kafedrasiga o‘qituvchisi Sh.Eshmurodov.

O‘zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi, uning jahon integratsion jarayonlariga faol qo‘silishi xorijiy sheriklar foydalanilayotgan eng yangi texnologiyalarini tadbiq etishga majbur qilmoqda. Bugungi kunda butun jahon bozori kompyuter texnologiyalari bilan to‘ladir.

Butun jahonda talab va taklif bo‘yicha axborotlar ma’lumotlar bazasida saqlanadi, chunki bozor munosabatlari bozorni baholash bo‘yicha huddi shunday axborot ta’minoti jihatdan qo‘llab-quvvatlashga zaruriyat tug’iladi. Bu xususan, hamidan avval yo‘ldoshli aloqa kommunikatsion tizimlari, ma’lumotlarning yirik banklariga qaratilgan global axborot tizimlaridir.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari bizning fikrimizcha axborot manbalariga jadal kirishga, ularni olishga, ishlab chiqishga va foydalanuvchi uchun kerakli axborotlarni belgilangan vaqtida va ko‘rsatilgan shaklida ishlab chiqishga imkon beruvchi dasturiy texnik qurilmalar, kommunikatsiyalar va aloqa vositalaridir.

Hozirgi vaqtida har tomonlama rivojlangan jamiyatni axborotlashgan deb ataydilar. Zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli pedagogning ta`lim berish faoliyati, uning kundalik muloqot sohasi jahon sivilizatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan tajribalar, bilimlar va ma’naviy boyliklarni jalb qilish hisobiga haqiqatdan ham chegarasi kengaymoqda.

Inson yashayotgan dunyo moddiy va nomoddiy ob’ektlardan, hamda ular o‘rtasidagi aloqalar va o‘zaro hamkorliklardan iboratdir. Sezgi organlari asboblar yordamida qayd etiluvchi atrofdagi dunyoning dalillari ma’lumotlar deb ataladi. Ular aniq vazifalarni hal qilgan taqdirda axborotlarga aylanadi. Vazifalarni yechish natijasida yangi bilimlar tizimlashtiriladi, haqiqiy yoki tekshiruvdan o‘tgan qonunlar, nazariyalar, tasavvurlar va qarashlarning boshqa majmualari ko‘rinishida

umumlashtirilgan ma'lumotlar paydo bo'ladi. Keyinchalik bu bilimlarning o'zлari boshqa vazifalarni bajarish va kamchiliklarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tarkibiga kirishlari kerak bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida yaratilayotgan va tarqatilayotgan asosiy tovar «axborot mahsulotlari va xizmatlari» dan iborat. O'z-o'zicha ma'lumotlarning mavjudligi, hatto noyob bo'lsada, agar foydalanuvchi ularni eng qulay shaklda ololmasa, tijorat muvaffaqiyatini kafolatlamaydi.

Eng umumiyo ko'rinishda axborotlarni tijoratli tarqatishning zamonaviy texnologiyalarida, foydalanuvchilar o'zlarining terminal qurilmalari yordamida axborot mahsulotlari bilan «muloqot» qiladilar. Ulardan asosiysi ma'lumot bazalari belgilangan muammo sohaga tegishli mashina o'qiydigan shakldagi ma'lumotlar to'plamlari, hamda turli ma'lumotli direktoriyalar MB da foydalanuvchilarga qidirishni yengillashtiruvchi rubrikatorlar va boshqa ma'lumotlardir.